

Amir Temurning «Temur tuzuklari» asari va davlat boshqaruvi, ichki hamda tashqi siyosati

Azizaxon Sotvoldiyeva


Andijon viloyati Asaka tumani O'zbekiston Respublikasi IIB
akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada milliy madaniy merosimizning noyob namunasi sifatida qaralgan Amir Temurning «Temur tuzuklari» asari, unda yoritilgan davlat boshqaruvi, ichki hamda tashqi siyosati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, «Temur tuzuklari», qonun, qo'llanma, boshqaruv...

Ma'lumki, Amir Temur davrida madaniyat, san'at, ilm fan gurkirab o'sdi va rivojlandi. Jahongir qayerga bormasin o'sha yerdan eng qo'li gul ustalarni, hunarmand va san'atkorlarni, shoiru olimlarni ozor yetkazmay olib keldi, ularni tarbiyalab voyaga yetkazdi. Uning davrida Samarqand yer yuzining sayqaliga, Buxoro islom dinining quvvatiga aylandi. Turon yurti o'z madaniy taraqqiyoti bilan jahonning ko'zini qamashtirdi. shuningdek, Amir Temur davlat boshqaruvida, ichki va tashqi siyosatda asosan o'z qo'shinlariga suyanganligi sababli harbiy islohotga, ya'ni qo'shin boshliqlarini tanlash, lashkar qismlar, ularning joylashishi, askarlarning qurollanishi va harbiy intizom masalalariga keng e'tibor bergan. U qo'shinlarini o'nlik, yuzlik, minglik kabi askariy birikmalarga bo'lgan. Uning uchun har bir askar jang qilish uslublarini yaxshi bilishi farz hisoblagan. Amir Temur lashkarlarga hamkatta e'tibor berib, ular nizomni qat'iy bajarishi, jangda ayovsiz va dovyurak bo'lishi, dushmanga yumshoq muomalali va adolatli bo'lishi lozim deb hisoblardi. Ibn Arabshohning yozishicha, Temur askarlari ichida taqvodor, saxovatli, xudojo'y kishilar ko'p bo'lgan. Ular bechoralarga xayru ehson ko'rsatish, boshga og'ir kunlar tushganda yordam qo'lini cho'zish, asirlarga yumshoq muomalada bo'lish va ularni ozod etishga odatlanganlar. Amir Temur doim jangda jasorat ko'rsatgan amirlar va askarlarga alohida e'tibor bilan qaradi. Natijada Sohibqiron uyushqoqlik hukm surgan yuz minglik qo'shinlari ichida intizomni mustahkamlash bilan o'z davlatining poydevori bo'lgan qo'shin tuzishga muvaffaq bo'ldi. Zero, Amir Temur saltanati tarixiy zarurat edi. Ijtimoiy hayot, xalqlarning hayoti tarzi shunday buyuk bir shaxsning dunyoga kelishini

kutar edi. Turon, binobarin, Mavorounnahr, Eron, Ozarbayjon, Xuroson mo'g'ullar oyog'i ostida ingrar, najot istar edi. Shunday najot farishtasi Temur bo'ldi. U tarix sahnasiga chiqib,



Turon zaminini mo'g'ullardan tozaladi. Garchi Turon zaminida olimlar, muhandislar, ustalar yetarli bo'lsa-da, Amir Temur Hindiston, Iroq va Erondan ham olim-u fuzalolarni Samarqandga olib kelgan. Amir Temur qaysi mamlakatni egallasa, uning noyob o'ljasi shu o'lkaning rassomlari, mohir ustalari hisoblangan. U o'sha yerlik olimu ulamolarga mehribonlik ko'rsatgan. Albatta, bu tadbirlar juda yaxshi natijalarga olib

kelgan. Xilda Xukxemning e'tirof etishicha, «Temur dunyoga kelgan yurtda falsafa, tibbiyot, matematika, astronomiya, geografiya, tarix, adabiyot sohalarida olamshumul asarlar yaratildi. Bu asarlar keyinchalik Yevropa Uyg'onish davriga turtki bo'ldi va Yevropa, fanining uzoq asrlar davomidagi taraqqiyotiga asos bo'lib xizmat qildi. O'n beshinchi asrni Temuriylar Renessansi davri deb atash mumkin». Amir Temur tomonidan tuzilgan «Temur tuzuklari» asari ham Amir Temurning davlat boshqaruvi, ichki hamda tashqi siyosati haqida qimmatli ma'lumotlarni beradi. Atoqli rus olimi D.Logofet «Temur tuzuklari»ni o'rganib, unga Turkistonda Yevropadan 500 yillar oldin vujudga kelgan Konstitutsiyaviy kodeks, boshqacha aytganda, Amir Temur saltanatining Konstitutsiyasi, deb yuksak baho bergan. Binobarin, mustaqillikning dastlabki yillari – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasining muhokamasi davrida Asosiy qonunimizni «Tuzuklar» deb atash tavsiya etilgani ham bejiz emas. Azaldan ma'lumki, qaysi bir asar mazmun-mohiyatan g'oyatda qimmatli, amalda juda zarur bo'lsa, o'shandan ko'plab nusxalar ko'chirilgan va tarqatilgan. «Temur tuzuklari» asosan toju taxt sohiblari uchun muhim qo'llanma hisoblangan. Shuning uchun ham hukmdorlarning aksariyati bu asardan nusxa ko'chirtirib, shaxsiy kutubxonasida asragan va davlat siyosiy faoliyatida muhim yo'l-yo'riq sifatida foydalangan. Tarixga murojaat etadigan bo'lsak, buyuk vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Boburning avlodi Shoh Jahon (1628—1657), Qo'qon xoni Muhammad Alixon (1821—1842) va Buxoro amiri Abdulahadxon (1885—1910) mohir kotiblariga buyurib, «Temur tuzuklari»dan o'zlari uchun nusxa ko'chirtirganlar.

Ma'lumki, ulug' ajdodimiz Amir Temurning "Temur tuzuklari" asari mustaqillik yillarida milliy madaniy merosimizning noyob namunasi sifatida qayta tiklanib, bir necha bor nashr qilindi. Sohibqironning 675 yillik tavallud to'yi arafasida bu kitob mukammal holda, yuksak sifat bilan yangitdan chop etildi. «Temur tuzuklari»da aytilishicha, musulmonlarga diniy madrasalarda ta'lim berish, shariat aqidalari va islom dini ilmlari: tafsir, hadis, fiqhdan dars berish uchun sohibqiron tomonidan har bir shaharga olimlar va mudarrislar tayin qilingan. Talabalarga o'z davrining yirik allomalari dars berganlar. Madrasa mudarrislariga ko'p maosh to'langan, ular farovon hayot kechirganlar. «Temur tuzuklari»da «Sayyidlar, ulamoyu mashoyix, oqilu donolar, tarixchilarni e'tiborli kishilar hisoblab, hurmatlarini joyiga qo'ydim. Ular bilan qimmatli fikrlashdim», - deb yozadi. O'tmishda ma'naviy kamolotga intilgan shogirdlar (muridlar) o'zlarini tamomila ustoz (murshid) ixtiyoriga topshirganlar. Amir Temur buyuk davlat arbobi va yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan dono hukmdor bo'lib, ham siyosiy, ham ma'naviy jihatdan juda katta tarixiy ahamiyatga egadir. Zero, Amir Temur XIV asrdayoq mamlakat va mintaqalararo munosabatlarni chuqurlashtirib, yagona iqtisodiy makonga birlashtirishga harakat qildi. Integratsiyani ishlab chiqib, Buyuk Ipak yo'li o'tgan mamlakatlar o'rtasida madaniyatlar muloqotini boshlab berdi.

Xullas, Amir Temur davlat tizimi va boshqaruvni tashkil etishda o'ziga xos maktab yaratdi, adolatli jamiyat qaror toptirishda qonun ustuvorligiga rioya qildi. Shuningdek, Amir Temur davlatchilik tamoyillarini rivojlantirdi, uni aql-idrok salohiyatiga tayanib, taktik va strategik asosda shakllantirdi. Uning saltanati ma'naviyat va oliy darajadagi madaniyatga yo'g'rilgan saltanat edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Temur tuzuklari", T: 1996-y.
2. Mo'minov. I. "Amir Temurning O'rta Osiyo tarixidagi o'rni va roli. T.: 1960-yil